

Ikkinchi Jahon urushining tub burilish janglari da o'zbek jangchilarining qahramonliklari.(Moskva, Stalingrad va Kursk)

Mirjalol QOSIMOV

O'zMU O'zbekiston tarixi kafedrası o'qituvchisi

Tel.: +998911919002

E-mail: mirqosimov1707@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur tadqiqot ishida Ikkinchi jahon urushining strategik yo'nalishini butunlay o'zgartirgan tub burilish janglari — Moskva mudofaasi, Stalingrad jangi va Kursk yoyidagi to'qnashuvlarda o'zbekistonlik jangchilarning ko'rsatgan beqiyos jasorati va harbiy mahorati tarixiy-publitsistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolada arxiv materiallari, kino-xronikalar va tarixiy hujjatlar asosida o'zbek o'g'lonlarining fashizmga qarshi kurashdagi real qahramonliklari, xususan, pulemyotchilar, tankchilar va merganlarning jangovar yo'li yoritilgan. Shuningdek, ushbu tarixiy g'alabalarda o'zbek xalqining qo'shgan hissasi audio-vizual materiallar vositasida zamonaviy yoshlar ongida vatanparvarlik, milliy g'urur va tarixiy xotira tuyg'ularini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, tub burilish janglari, Moskva mudofaasi, Stalingrad jangi, Kursk yoyi, o'zbek jangchilari, qahramonlik, tarixiy xotira, audio-vizual materiallar.

1941-yil 22-iyun kundan sovet xalqi hayotida eng og'ir davr – nemis bosqinchilariga qarshi mardonavor kurash davri bosjhlendi. Shu kuni fashitlar Germaniyasi 1939-yiliga shartnomani buzib, urush e'lon qilmasdan turib Sovet Ittifoqi hududiga bostirib kirdi. Zamonaviy urush olib borish xususida 2-3 yillik tajribaga ega bo'lgan, yaxshi tayyorlangan armiyadan iborat bo'lgan 190 ta dviziya Sovet davlatiga bostirib kirdi.¹ Germaniya armiyasi

¹ Иноятлов Х. Галабага қўшилган хисса. –Т.: Фан. 1975. –Б.6.

SSSRning Boltiq dengizidan to Qoradengizgacha bo'lgan chegaralariga yoppasiga hujumga o'tdi. Urushning dastlabki kunlarida SSSR armiyasi juda katta talofatlarga uchradi, chunki armiya hali urushga tayyor emas edi. Sovet razvedkasining Germaniyaning urushga tayyorgarlik ko'rayotganligi haqidagi ma'lumotlarni Stalin ig'vogarlikka yo'ydi. Uning o'ylashicha Germaniya g'arbiy frontda to'la g'alaba qozonmay turib, sharqiy frontda harbiy harakatlar olib bormaydi deb o'ylagan edi. Shuningdek dastlabki janglardagi katta yo'qotishlarga Stalin tomonidan amalga oshirilgan 1937-1939-yillardagi qatag'on tufayli armiyaning yuqori darajadagi ofitserlar tarkibidagi 40 ming kishining repressiya qilinganligi ham sabab bo'ldi. Katta-katta armiyalarga polkovnik, kapitan va boshqa kichik ofitserlar rahbarlik qila boshlagan edi.

Ammo shunday bo'lsa-da, Qizil Armiya tish-tirnog'igacha qurollangan nemislarga qarshi jangni davom ettiraverdi. Dushman bilan birinchi yirik jang SSSRning g'arbiy chegarasidagi – Brest qal'asida sodir bo'ldi. Nemis qo'shinlari Smolensk atrofiga yetib kelgan bo'lsa-da, Brest qal'asida hali ham janglar davom etmoqda edi. Sovet davlatining darvozasi hisoblangan Brest qal'asida ellikka yaqin millat vakillari bir oy davomida dushmanning katta kuchlarining qarshiligini to'xtatib turishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu janglarda o'zbekistonlik jangchilar ham o'z mardonavorliklarini ko'rsatdilar. Ushbu jangda qal'a himoyachilaridan bir necha kishigina tirik qolgan. Ularning o'lamas qahramonliklari haqida hikoya qiluvchi ko'plab hujjatlar Brest qal'asi muzeyida saqlanadi. Brest qal'asi mudofaachilaridan biri Diyor Abdullayev edi. U nemislar bilan bo'lgan yuzma-yuz jangda to'rt askarni nayzasi bilan yer tishlatdi. O'zi ham shu kurashda qahramonlarcha halok bo'ldi.²

Brest qal'asidagi mudofaa janglarida boshqa ko'pgina o'zbekistonlik jangchilar jasurlik ko'rsatdilar. Ular orasida Ahmad Aliyev, Isayev, Yusupov, Uzoq O'tayev, Yefim Yakovlevich Liss, Ivan Fedorovich, Rahimboy Arslonbekov, Saidahmad Boytemirov, Flipp Ivanovich Laenkov, Og'amirza Aliyev, Tursin Xidirov, Nurim Siddiqovlar bor edi.³

² “Қизил Ўзбекистон”, 1968 йил 17 февраль.

³ Жўраев Т. Ўзбекистон чангчилари улуғ ватан уришида. –Т.: Шарқ. 1975. –Б.5

Qamaldagilar bir oy davomida qal'ani nemislarga bermadilar. Faqatgina o'q-dori tugab, qamaldagilar sillasi qurigach ular qal'ani egalladilar. Himoyachilar so'nggi tomchi qoni qolgunicha jang qildilar, buni qal'a devorlaridagi qon bilan yozilgan "Alvido vatanim", "O'layotgan bo'lsam ham taslim bo'lmayman" deb yozilgan so'zlar isbotlaydi. Brest mudofaachilari 1941-yil 22-iyundan 1941-yil 30-iyulgacha 5000 ming jangchilari uchinchi reyxning 17000 ming askariga qarshi kurash olib bordilar. Ko'rsatilgan mislsiz qahramonliklar tufayli ushbu qal'aga "Qahramon qal'a" degan nom berildi.

G'arbiy frontdagi dastlabki janglarda Toshkent umum harbiy komandirlik oliy maktabini tugatgan Aleksey Dmitrievich Garkaviy shuhrat qozondi. Uning ko'rsatgan qahramonlikari natijaida unga keyinchalik "mayor" unvoni berildi. Shuningdek ushbu janglarda oddiy askar va komandirlardan Rajabov, Soadatov, Tolipov, Bekmurotov, Nazarov va boshqalar qahramonliklar ko'rsatdi. G'arbiy frontlarda janglarda 353-tog'o'qchi birgadasi jangchisi, birinchi o'zbekistonlik "Sovet Qahramoni" andijonlik Qo'chqor Turdiyev shurat qozondi. Uning bir o'zi Ukrainaning Xarkov viloyatida dushmanning o'q otar tochkasini hamda 9 nafar soldat va ofitserini yo'q qilib, uch nafar askarnin asir qilib olib keldi. 1942-yil 27-martida SSSR Oliy Siveti Prezidiumining Sovet Armiyasi ofitserlari va oddiy askarlari sostaviga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berish to'g'risida Farmonin e'lon qilindi. Mana shu Farmonga muvofiq 26 nafar kishiga ushbu yuksak unvon berildi. Bular orasida Q. Turdiyev ham bor edi.⁴

Kuchlar teng emasligi uchun Qizil Armiya katta talofatlar berib chekina boshladi. Sovet-german frontida 1941-yilning kuziga kelganda janglar avjiga chiqdi. Nemis qo'shinlari qishga qolmay Moskva va Leningrad shaharlarini egallashga harakat qildi. Moskva ostonasida tarixda mutlaqo kuzatilmagan ikki yirik armiya to'qnash keldi. Ularning biri qanday qilib bo'lsa ham shaharni egallash, ikkinchisi esa shaharni qo'ldan bermaslikka harakat qilar edi. 1941-yil 30-sentabridan 1942-yilning 20-apreligacha Ikkinchi jahon urushida o'zgarish yasagan va nemis-fashist qo'shinlarining ikki yarim yil ichidagi birinchi yirik mag'lubiyati bo'lgan Moskva mudofaasi uyushtirildi. Gitler Germaniyasi tomonidan

⁴ Раҳмат А. Олтин юлдуз кавалерлари. –Т.: Ёш гвардия. 1977. –Б.177

tayyorlangan “Tayfun” rejasi asosida 1 mln 800 ming jangchi, 1700 ta tank, 1000 ta samolyotdan iborat qo‘shinlar hujumga o‘tdi.⁵ Ularga qarshi G‘arbiy front qo‘mondoni Jukov rahbarligidagi 1mln 200 ming jangchi, 1000 ta tank va 677 ta samolyotdan iborat bo‘lgan Qizil Armiya qarshi turar edi.⁶ Shuningdek Moskva ostonasidagi janglarda o‘zbekistonlik jangchilar I.S.Konev qo‘mondonligidagi olti armiya (22, 29, 30, 19, 16 va 20)lar safida, S.M.Budenniy qo‘mondonligidagi 31-, 32-, 33-, va 49-zahiradagi armiyalar saflarida poytaxt mudofaasida qatnashdilar.⁷

Moskva mudofaasi uchun bo‘lgan janglarda o‘zbekistonlik jangchilar ham sovet mamlakati aholisi kabi o‘z hissasini qo‘shdilar. 1941-yilning 5-6-dekabr kunlari qarshi hujumga o‘tilishi natijasida nemis qo‘shinlari Moskva ostonalaridan ulotqirib tashlandi. Dekabr oyining oxirlariga kelganda Moskva uchun xavf solib turgan dushmanning zarbdor guruhlar tor-mor etildi.

Moskva mudofaasida Toshkentda uzoq yillar xizmat qilgan general I. V. Panfilov tomonidan tuzilgan dviziya qahramonliklar ko‘rsatdi. Uning tarkibiga Toshkent piyoda bilim yurti va O‘rta Osiyo harbiy okrugining harbiy-siyosiy bilim yurtini tugatgan 180 ta zobit bor edi. Ushbu dviziya Moskvani Volokalsk yo‘nalishida himoya qildi.⁸ Ushbu janglarda leytenantlar Kakuliya va Pilyugin, Mamadali Madaminov, Abdulla Tog‘ayev, Gurpin, M. V. Valitov yefreytor G‘affor Tursunov⁹ va Galkin singari ko‘plab o‘zbekistonliklar shuhrat qozondilar.¹⁰ Moskva mudofaasida Samarqandlik Abduxol To‘qmoqov ko‘plab jasoratlar ko‘rsatdi. Uning pulemyotchilar guruhi Moskvadan to Berlingacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Uning bir o‘zi Moskva atrofidagi janglarning birida 115 nems-fashitni yer tishlatdi. Ko‘rsatgan qahramonliklari uchun “Shuhrat” ordeni bilan mukofotlandi.¹¹ Moskva ostonalaridagi janglarda nafaqat harbiylar, balki, shufokorlar ham yukak xizmat ko‘rsatdilar. Jumladan, dviziyaning shifokori G‘ulom Abdukarimov ko‘plab

⁵ История второй мировой войны: (1939-1945 гг.). М., 1975.Т.4. –С.90.

⁶ <https://uz.m.wikipedia.org>.

⁷ История второй мировой войны: (1939-1945 гг.). М., 1975.Т.4. –С.93.

⁸ Усмонов Қ., Содиқов М. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йй). –Т., 2002. –Б.171.

⁹ Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Иккинчи китоб. –Тошкент. Akademnashr. 2017. –Б.579.

¹⁰ Жўраев Т. Ўзбекистон чангчилари улуг ватан уришида. –Т.: Шарқ. 1975. –Б.9.

¹¹ Кургузов И. Шуҳрат ордени кавалерлари. –Т.: Ёш гвардия. 1967. –Б.9.

jangchilarning hayotini saqlab qoldi. 1941-yil 16 – 18-noyabrning o‘zidayoq 120 nafar jangchini operatsiya qildi. Urush yillarida ushbu shifokor minglab sovet jangchilarining hayotini saqlab qoldi.¹²

Moskva ostonalarida Pavel Alekseevich Belov va Lev Mixaylovich Dovotar qo‘mondonligidagi 1- va 2-otliq askarlar korpusi safida o‘zbekistonlik jangchilar ham shuhrat qozondilar.

1-otliq askarlar korpusida o‘zbekistonlik jangchilar anchagina edi. 99-otliq polkining pulemyotchisi Toji Sharafiddinov, serjant Jumaboy Otaboyev, sapyor Xoldor Ashirovlar “Qizil Yulduz” ordeni bilan mukofotlandilar.

1-otliq dviziyaning kavaleristi Abdurahmon Boqiyev, 3-otliq polkining kavaleristi Saidnazar Jumanazarov va boshqa ko‘pgina jangchilar medallar bilan taqdirlandilar. 12-gvardiya polkining stanokli pulemyot rascheti komandiri Sulton Jo‘rayev, 9-gvardiyachi otliq polkidagi qo‘l pulemyotining birinchi o‘qchisi Komil Karimov, namanganlik arteleriyachi Abdusattor Rahimov Moskva mudofaasida qahramonliklar ko‘rsatdilar. Ushbu janglarda qahramonlik ko‘rsatgani uchun Abdusattor Rahimovga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.¹³

Toshkent yaqinida tuzilgan 44-kavaleriya dviziyasi Moskva mudofaachilari safida bo‘ldi. Ushbu dviziya Samarqand, Farg‘ona va Toshkent shuningdek, respublikaning boshqa viloyatlaridan bo‘lgan asosan o‘zbek o‘g‘lonlaridan tuzilgan edi. Mazkur dviziyaning 106 nafari Sovet Ittifoqining orden va medallari bilan mukofotlandilar. Mukofotlanganlar orasida siyosiy xodimlardan Amixon Yunosov, Ne‘mat Hamidxonov¹⁴, serjantlardan Tog‘ay Nuraliyev, Sadri Abdullin, oddiy askarlardan Xoja Otajonov, Xurram Shodiyev va boshqalar bor edi.¹⁵

O‘zbekistonda tuzilgan 258-o‘qchi dviziyaga Moskva ostonalarida ko‘rsatgan qahramonliklari uchun 12-gvardiyachi o‘qchi dviziya degan nom berildi. Ushbu dviziya

¹² “Қизил Ўзбекистон”, 1961 йил 9 май.

¹³ Жўраев Т. Ўзбекистон чангчилари улуг ватан уришида. –Т.: Шарқ. 1975. –Б.11.

¹⁴ Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Иккинчи китоб. –Тошкент. Akademyashr. 2017. –Б.505.

¹⁵ Жўраев Т. Ўзбекистон чангчилари улуг ватан уришида. –Т.: Шарқ. 1975. –Б.13.

birinchilardan bo'lib Kalugani ozod qildi va Ufa daryosi sohillariga chiqdi. Ushbu dviziyaga dastlab K. P. Trubnikov boshchilik qildi. Keyinchalik 1941-yil 17-noyabrdan polkovnik Siyazov (keyinchalik general) rahbarligida urushni davom ettirdi.¹⁶ Ushbu dviziyaning mukofot va ordenlar bilan mukofotlangan jangchi ofitserlari orasida Mironov, Jumabekov, Adineev, B. O'razov, G. Tolipov, M. Bektemirov, Kashapov va boshqalar bor edi.¹⁷

Moskva ostonalaridagi janglarda o'zbekistonlik mergan shuhrat qozondilar. Ular orasida Is'hoqov 354 ta fashistni, Abubekov 229, Yusupov 132, Madaminov 123 fashist askar va zobitlarini yer tishlatdilar. Ayniqsa Moskva mudofaasidagi merganlar orasida o'zbek qizi Zebo G'aniyeva ishlari diqqatga sazovordir. Urush boshlangan paytda u endigina 16 yoshda bo'lib, Moskva teatr san'ati instituti talabasi edi. Urush boshlangach u ortga qaytmadi va taniqli snayperchi va chekist bo'lib yetishdi. Zebo G'aniyeva 1941 – 1943-yillar orasida bo'lib o'tgan janglarda 3-Moskva armiyasining 528-o'qchi polkida xizmat qildi. Urush davomida Zebo G'aniyeva 129 ta fashistni yer tishlatdi.¹⁸ Zebo G'aniyeva Demyanskda bo'lgan jangda qattiq yaralandi. Ko'rsatgan jasoratlari uchun hukumat tomonidan orden va medallar bilan mukofotlandi. 1985-yilda g'alabaning 40 yilligi munosabati bilan “1-darajali Ulug' vatan urushi” ordeni bilan mukofotlandi.¹⁹

Moskva mudofaasidagi sovet xalqlarining qahramonona kurashlari natijasida nemis-fashist qo'shinlari mamlakat poyatxtidan 150-200 km uzoqlikka uloqtirib tashlandi. Ushbu jang “Yashin tezligidagi” urush rejasini barbod qildi. Gitler armiyasi II jahon urushi boshlanganidan buyon ikki yarim yil ichida birinchi bor qaqshatqich zarbaga uchradi. Ushbu g'alabaga o'zbekistonlik jangchilar ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Ko'rsatgan jasoratlari uchun 1753 nafar o'zbekistonliklar “Moskva mudofaasi uchun” medali bilan mukofotlandilar.

¹⁶ Жўраев Т. Ўзбекистон чангчилари улуг' ватан уришида. –Т.: Шарқ. 1975. –Б.14.

¹⁷ Усмонов Қ., Содиқов М. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йй). –Т., 2002. –Б.172.

¹⁸ <https://ru.m.wikipedia.org>

¹⁹ O'sha joyda

1942-yilning bahor va yoz oylarida Germaniya armiyasi sharqiy front bo'ylab keng miqyosda hujumga o'tdi. Buning natijasida 1942-yil bahor va yoz oylarida sovet qo'shinlari Xarkov va Leningrad atroflarida bo'lgan janglarda mag'lubiyatga uchrab katta talafot ko'rdi.²⁰ Nemis armiyasining oldida turgan asosiy vazifa: Don va Kuban, Volga bo'ylariga chiqish, Shimoliy Kavkazni qo'lga kiritib, u yerdagi neft konlariga egalik qilish va shu orqali Sovet davlatining transport sohasini izdan chiqarish edi.

1942-yilda boshlangan ushbu hujumlar natijasida nemis-fashist qo'shinlari janubda Shimoliy Kavkaz, Sharqiy frontda esa Volga daryosi bo'ylarigacha yetib kelish. Ammo voqealar rivoji esa mutlaqo boshqa yo'nalishga burulib ketdi. Stalingrad shahri uchun janglar nafaqat strategik jihatdan balki manaviy-ruhiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etar edi. Chunki ushbu shahar SSSR xalqlari dohiysi Stalin nomi bilan atalar, nemislar ushbu shaharni egallab ruhiy jihatdan ustunlikka erishishni ko'zladilar. Stalingrad uchun janglar 1942-yilning 19-noyabrdan to 1943-yilning 3-fevraliga qadar davom etdi. Ushbu jang II jahon urushidagi Sharqiy frontdagi yetakchilikni Sovet armiyasiga o'tishini ta'minladi. Bunga Stalin tomonidan 1942-yil 28-iyulda "Bir qadam ham orqaga chekinilmasin!" – "Ни шагу назад", degan 227-buyrug' e'lon qilindi. Unga ko'ra kimda-kim chekinsa, u o'limga mahkum edi. Bu 1941-yil qish oylarida tashkil etilgan "jarima batalonlari"dan ham daxshatliroq edi, ya'ni jangchilar o'lsa-o'lsin, lekin Stalin nomi bilan atalgan shaharga fashistlar qo'yilmasin degan buyruqni anglatar edi.²¹

Ikkinchi jahon urushi yillarida sobiq SSSRning targ'ibot-tashviqot mashinasi ham bunuqson ishladi. Barcha sovet xalqini totalitar tuzimni saqlab qolishga safarbar etish kerak edi. Buning uchun turli usullardan foydalanildi. Masalan 1942-yilning 31-oktabrda "Правда" gazetasi rus va o'zbek tillarida "O'zbek xalqining jangchilariga ularning el-yurtlaridan kelgan maktub"ini e'lon qildi. Ushbu maktub barcha milliy front gazetalarida ham chop etildi. Maktubga 2.412 ming kishining imzosi chekilgan edi.²² Yuqorida amalga

²⁰ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. –Т.: О'zbekiston. 2019. –Б.46.

²¹ Азимов Ҳ.И. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон ҳарбийларининг иштироки ва мавқеи. (1941-1945 йй). /Т.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т., 2004. –Б.39.

²² Фашизм устидан қозонилган ғалабада Ўзбекистоннинг еарихий ҳиссаси. –Т., 1996. –Б.57-58

oshirilgan ishlar jangchlarning ko'tarinki ruh va yuksak masuliyat bilan shahar mudofasini tashkil etishiga olib keldi.

Stalingrad jangida o'zbek jangchilari 62-va 64-armiyalar safida ishtirok etishdi va misli ko'rilmagan mardlik namunalarini ko'rsatdilar. Ular 1942-yilning 17-iyulida fashistlar zarbdor qismlarining hujumlariga Chir va Simla daryolarining havzasida qarshi turdilar. Ana shundan keyin 200 kun davom etgan Stalingrad jangi boshlandi.²³ Asosan o'zbeklardan tuzilgan 112-o'qchi dviziya 11-avgustdan to 20-oktabrgacha Stalingrad bo'sag'alarida, keyinchalik shaharning o'zida ham shiddatli janglarda ishtirok etdilar. Mazkur dviziya tarkibidagi mayor Hasanov bshchiligidagi 385-o'qchi polk gitlerchilarning katta kuchdagi hujumlarini qaytarib turdilar²⁴. Bu janglarda to'pchi Saylou Mahummadjonov, razvedkachi K. K. Yoqubov, o'qouv bataloning kursanti Ravshan Uzoqov va boshqalar mardlik va jasorat ko'rsatdilar. Shuningdek, ushbu jangda katta serjant Usmonov o'lmas jasorat ko'rsatdi. U dushman tanklarini to'xtatishga rahbarlik qildi. Yarador bo'lishiga qaramasdan bir bog'lam granatani beliga bog'lab o'zini tank tagiga tashlab, mardlarcha halok bo'ldi.²⁵

Stalingrad shahri uchun janglarda saflarida 159 nafar o'zbek yigiti bo'lgan 33-gvardiyachi dviziya jangchilari dushman bilan mardonavor kurashdilar. Ular orasida Muhammad Zokirov va Hakim Gubaydulin kabi o'zbekistonlik jangchilarning shuhrati yoyildi. Stalingrad jangi avjiga chiqqan paytda frontga tarkibi asosan o'zbeklardan bo'lgan, Samarqand va Farg'onadan tuzilgan 90-va 94-o'qchi brigadalar kelib qo'shildilar.²⁶ 94-o'qchi dviziyadagi komandirlarning 25 foizini, siyosiy rahbarlarning 80 foizini, yosh komandirlar tarkibining 95 foizini, oddiy askarlarning esa 96 foizini o'zbeklar tashkil etar edi. Birgina 94-o'qchi dviziyasidan (keyinchalik general-leytenant) Fayzulla Norxo'jayev va (keyinchalik general-leytenant) Sobirjon Oxunovlar yetishib chiqdi. S. Oxunov urushning boshidan to oxiriga qadar jangovar yo'lni bosib o'tdi. Volgadagi janglar vaqtida

²³ Тўхтасинов И. Ўзбек ўқчилари. —Т.: Ўзбекитон. 1991. —Б.16.

²⁴ Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Иккинчи китоб. —Тошкент. Akademnashr. 2017. —Б.381.

²⁵ Жўраев Т. Ўзбекистон чангчилари улуг ватан уришида. —Т.: Шарқ. 1975. —Б.20.

²⁶ Кургузов И. Шухрат ордени кавалерлари. —Т.: Ёш гвардия. 1967. —Б.15.

u 90-o'qchi dviziya tarkibida qatnashdi.²⁷ Bu dviziyada arteleriya komandiri kapitan F. Norxo'jayev ham ishtirok etgan edi.²⁸

1942-yil dekabr oyining boshlarida 94-o'qchi brigada 3-gvardiyachi armiya safiga qo'shib yuboriladi. Ular Don daryosi bo'ylarida 6-armiyani qutqarishga tashlangan nemis-italyan qismlariga qarshi janglar olib bordi. Shuningdek ushbu o'qchi dviziya Stalingrad uchun olib borilgan urushlarda Volga va Don orolig'ida dushmanning saralangan qo'shinlarini tor-mor etadi. Jangovar harakatlarda ko'plab yurtdoshlarimiz halok bo'ladi. Urushga kirgan 94-o'qchi brigadaning 13 ming jangchisidan faqatgina sakkiz yuzdan sal ortig'i uyiga qaytib kelgan edi.²⁹ 21-otliq askarlar dviziyasining baland ruhda jang qilishida dviziya komissari, keyinroq general-mayor unvoniga erishgan Mullajon Uzoqovning xizmatlari katta bo'ldi.³⁰

1942-yilning oxirida boshlangan qarshi hujum natijasida dushmanning 330 mingli qo'shilmalarini qurshovga olishda saflari o'zbeklar bilan to'ldirilgan 333-o'qchi dviziya jasorat ko'rsatdi. Ushbu bo'linma sapyorlar rotasi komandiri Mahmud Abdullayev janglarda mardlik ko'rsatdi³¹. M. Abdullayev Kosonogov va Podskalniy xutorlari rayonlarini minalardan tozalab, dviziyaning qarshi hujumga o'tishiga imkoniyat yaratib berdi.³²

Shahar uchun janglarda 128-gvardiyachi Turkiston tog'-o'qchi dviziyasining shaxsiy tarkibi qahramonliklar ko'rsatdi. Kichik leytenant M. Kabirov vzvodiga Perelazovsk xutori yonidagi tepalikni egallash va uni ushlab turish vazifasi topshirildi. Vzvodning 40 nafar jangchisi dushmanning qattiq qarshiligiga qaramasdan tepalikni ishg'ol etishdi. Vzvodning tirik qolgan 11 jangchisi 12 kun davomida dushmanning katta kuchlariga qarshi turib, ularni shu tepalik atrofida to'xtatib qolishdi. Ularning 9 tasi o'zbek, 1 tasi qozoq va 1 tasi tatar edi. Og'ir janglarda B. Alimbekov, D. Ahmedov, B. G'Afforov, S. Mardonov, H. Musayev, S.

²⁷ Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.). в 3-х.-Т., 1981. Т.1. –С.357.

²⁸ Тошкент окшоми. 1995 йил 20декабрь.

²⁹ Тўхтасинов И. Ўзбек ўқчилари. –Т.: Ўзбекитон. 1991. –Б.25.

³⁰ Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi(1917-1991-yy). –Т.: Sharq. 2010. –Б.174.

³¹ Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Иккинчи китоб. –Тошкент. Akademyashr. –Б.482.

³² Жасорат(Совет Иттифоқи Қаҳрамонлари ҳақида очерклар). –Т.: F.Фулум. 1978. –Б.39.

Payziyev, N. Haitov, S. Tlenovlar manushu tepalikda qahramonlarcha halok bo'ldilar. Faqatgina Abdurahmon Erdonova va M. Kabirovlar tirik qoldilar.³³

1942 – 1943-yillarda salkam besh oyga cho'zilgan janglarda qizil armiya dushmanning 113 ta dviziyasinin tor-mor etdi. Nemis qo'shinlari 600 – 700 km uzoqlikka surib chiqarildi. 1943-yilning 2-fevral kuni Germaniya armiyasining 6-armiya qo'mondoni feld-marshal Pauls taslim bo'lish haqidagi shartnomani imzoladi. U bilan birgalikda 91 ming nemis askarlari, 24 ming ofitserlar va 26 armiya generali arsirga tushdi. Ushbu mag'lubiyat Gitler Germaniyasining Sharqiy frontda hujum qilish qobiliyatini butunlay tugashiga olib keldi. Endi tashabbus qizil armiyga o'tib, ular qarshi hujumga o'tdilar.³⁴

SSSR xalqlari qatorida o'zbekistonlik yigit va qizlar Stalingrad shahri mudofaasida qahramonliklar ko'rsatdilar. Stalingrad fronti qo'shinlari qo'mondoni general A.I.Yeryomenko o'zbekistonlik jangchilar to'g'risida zo'r faxr bilan fikr bildirgan edi. U O'zbekiston SSR hukumati nomiga yo'llagan maktubida “o'zbekning yuragi – sherning yuragi”, deb ta'kidlagan edi.³⁵ Stalingrad shahri mudofasida ko'rsatgan qahramonliklari uchun 2738 nafar o'zbekistonlik jangchilar “Stalingrad mudofasi uchun” medali bilan mukofotlandilar.³⁶ Mukofotlanganlar orasida Toshkent viloyatidan harbiy chaqiruvga jo'nagan Ivan Alekseevichn Grigoryev mudofaada ko'rsatgan jasoratlari uchun “Qizil Yulduz” ordeni va “Stalingrad mudofasi uchun” medali bilan mukofotlandi. Ana shu medal bilan mukofotlanganlar orasida katta leytenant Ibrohim Sodiqov, kapitan Mirzaahmad Boboshev, serjantlarda Zaynutdin Oripov, Zaynutdin Musurmonov, Umar Kalonov, Koship Sodiqov, oddiy askarlardan Obid Salohiddinov, Asom Sulaymonov, sapyorlardan – yefreytor Mahmud Abdullayev va oddiy askar Yesinboy Raimqulov, aloqachi A'lo Hasanov va To'xtamish Alimboyev va boshqalar bor edi.³⁷

³³ Усмонов Қ., Содиқов М. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йй). –Т., 2002. –Б.174.

³⁴ Великая отечественная война 1941-1945 годов. В 12 т. –М.:«Кучково поле», 2012. –С.421

³⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Б. 471.

³⁶ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. –Т.: О'zbekiston. 2019. –Б. 46.

³⁷ Жўраев Т. Ўзбекистон чангчилари улуғ ватан уришида. –Т.: Шарқ. 1975. –Б.22.

Stalingrad jangida “Shuhrat” ordening to‘liq kavaleri toshkentlik Shuhrat Karimov³⁸, “Sovet Ittifoqi Qahramon”lari buxorolik Narzi Rajabov³⁹, Xalloq Aminov⁴⁰, mirzacho‘llik Yelena Stempkovskaya⁴¹, Obloqul O‘rozov⁴², toshkentlik Botir Boboyev⁴³, quvalik Fyodor Matveev⁴⁴, Fayzulla Yo‘ldoshev⁴⁵ nomlari abadiy qoldi.

Stalingrad solnomasida shuningdek, namanganlik zobit Mamasoli Jabborov ham joy oldi. Uning motoo‘qchilar rotasi 1942-yilning noyabr oyida dushmanning chekinayotgan ikkita polkiga shiddatli hujum uyushtirib, 400 soldat va ofitserlarini qirib tashladi va 230 tasini asirga oldi. Buxorolik Hayit Xo‘jamatov esa 5 ta jangda o‘z pulemyoti bilan 300 nemis askarlarini yer tishlatdi.⁴⁶

Ushbu jangdagi g‘alaba Ikkinchi jahon urushida tub burilishni boshlab berdi. Urushdagi ustunlik endi SSSR, Buyuk Britaniya va AQSh davlatlaridan iborat bo‘lgan antifashistik kaolitsiya davlatlari foydasiga o‘zgardi. 1943-yilning iyul – avgust oylarida Kursk jangida erishilgan g‘alaba bilan tub burilish yakunlandi. Kurskdagi jang burilish yili bo‘lgan 1943-yilning muhim voqeasi edi.

Ikkinchi jahon urushidagi eng yirik janglardan biri bo‘lgan Kursk botig‘idagi ushbu jang 1943-yilning 5-iyul — 23-avgustga qadar davom etgan. Nemis fashistlar qo‘mondonligi ana shu yerda Voronej va Markaziy front qo‘shinlarini o‘rab olib, tor-mor qilish rejasini tuzgan. Bunga qarshi sovet qo‘mondonligi dastlab mudofaa, keyin qarshi zarba operatsiyalari bilan dushmanni tor-mor keltirish va uning yangi rejalarini barbod qilish rejasini ishlab chiqqan. "Kursk yoyi"ni mudofaa qilayotgan qo‘shinlarga qarshi nemislar o‘zining 2, 9-piyoda askarlar, 4-tank armiyasi, "Kampf" tezkor guruhini jangga tashlagan. Natijada ular 5-iyulda Oryol-Kursk yo‘nalishi bo‘yicha 10—12 km, Belgorod-

³⁸ Кургузов И. Шуҳрат ордени кавалерлари. –Т.: Ёш гвардия. 1967. –Б.71.

³⁹ Абдурахмонов О., Абдуллаев В. Мардлик. Мангулик. –Т.: Ўзбекистон. 1970. –Б.46.

⁴⁰ O‘sha asar. –Б.134.

⁴¹ O‘sha asar. –Б.148.

⁴² O‘sha asar. –Б.212.

⁴³ O‘sha asar. –Б.249.

⁴⁴ O‘sha asar. –Б.305.

⁴⁵ O‘sha asar. –Б.400.

⁴⁶ Усмонов Қ., Содиков М. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йй). –Т., 2002. –Б.175.

Kursk yoʻnalishi boʻyicha 35 km masofaga yorib kirgan. Iyul— avgust oylarida Markaziy, Voronej va Dasht (general polkovnik I.S. Konev), Gʻarbiy (general polkovnik V. O. Sokolovskiy), Bryansk (general polkovnik M. M. Popov) va Janubi-Gʻarbiy (armiya generali R. Ya. Malinovskiy) fronti qoʻshinlari qarshi hujumga oʻtib fashistlarning 30 diviziyasini yakson qilgan. 5-avgustda Oryol va Belgorod, 23-avgustda Harkov shaharlari ozod qilingan. Kursk yonidagi gʻalaba va sovet qoʻshinlarining undan keyingi hujumi Ikkinchi jahon urushida tub burilish yasadi. Strategik tashabbus toʻlaligicha Sovet Ittifoqi Qoʻmondonligi qoʻliga oʻtdi va urush oxirigacha saqlandi.⁴⁷

Orlov-Kursk jangida Sovet Ittifoqi Qahramonlari Ahmadjon Shukurov, Voldemar Shalandin, Mansur Abdullayev, Atoulla Solihov, orden sohibi Zilmat Husanov kabilar fidokorlik koʻrsatdilar. Ularning harbiy jasoratlari Markaziy, Voronej va Dasht frontlaridayuz minglab jangchilar uchun ilhomlantiruvchi namuna boʻlib xizmat qildi. Ayniqsa Kursk janglarida oʻzbekistonda tashkil topgan 5-oʻqchi dviziya “Orlovsk dviziyasi” degan faxriy nomga sazovor boʻldi.⁴⁸ Ushbu dviziyaning jangchilaridan biri fargʻonalik Ahmadjon Shukurov (1909 – 1990) sharafiga rus qishlogʻi Zolotaryovkaning nomi oʻzgartirilib, unga Shukurovka deb nom berildi. Uning bir oʻzi qishloqni ozod qilishda 110 nafar fashistni yakson qilib, 15 nafarini asirga oldi. Amalga oshirgan qahramonliklari uchun A. Shukurovga 1943-yil 27-avgustda Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.⁴⁹ Shuningdek ushbu janglarda Z. Hasanov ham qahramonliklar koʻrsatdi. 80 nafar gitlerchilarga qarshi kurash olib borib, 60 tasini yer tishlatdi. Oʻqlari tamom boʻlgach Z. Hasanov oʻzini va bir necha dushman askar va zobitlarini granata bilan portlatib yubordi.⁵⁰ Oʻz jasoratlari uchun minglab oʻzbekistonlik jangchilar turli jangovar orden va medallar bilan mukofotlandilar.

Ikkinchi jahon urushining asosiy janglari boʻlgan Moskva, Stalingrad, Kursk yoyida boʻlgan janglarda sovet xalqlari qatorida oʻzbekistonlik jangchilar ham mardonavor

⁴⁷ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. (Қадимги даврдан ҳозиргача). Т.: Sharq. 2012. –Б.220.

⁴⁸ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. –Т.: Оʻzbekiston. 2019. –Б.47.

⁴⁹ Абдурахмонов О., Абдуллаев В. Мардлик. Мангулик. –Т.: Ўзбекистон. 1970. –Б.50.

⁵⁰ Усмонов Қ., Содиков М. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йй). –Т., 2002. –Б.177.

kurashdilar. Ularning qahramonliklari urushning sahifalarida o'chmas harflar bilan yozildi. Ushbu janglarda o'zbekistonlik jangchilar orasidan Sovet Ittifoqi Qahramonlari, Shuhrat ordenining to'liq kavalerlari va yuqori darajadagi o'zbekistonlik ofitserlar yetishib chiqdi. Ushbu ma'lumotlar o'zbeklarning harbiy sohada hali hamon o'z mahoratlarini saqlab qolganliklari va yuksak vatanparvarlik hissi har qanday narsadan ustun ekanligini isbotlab berdi.

Nigoh